



JIZZAX VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2024- yil
yanvar-dekabr






JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI


2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **1537,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,2** ming kishiga yoki **102,0 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **721,6** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **816,0** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.



Doimiy aholi soni**1537,6***ming
kishi***Tabiiy o'sish****+32,4***ming
kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar
46,9%****Qishloq
53,1%****Doimiy aholi soni**

Aholining tabiiy harakati, ming kishi




Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2024- yil yanvar-dekabr




2024- yil yanvar-dekabr oylariga ko'ra, Jizzax viloyat doimiy aholisi sonining 33,6 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 55,6 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,8 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Jizzax viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **100,5 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **24,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **92,9 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **27,4 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2025- yil 1- yanvar holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- yanvar holatiga, ming kishi

| | 2024- yil | 2025- yil | O'sish sur'ati, % da |
|------------------------|----------------|----------------|-------------------------|
| Jizzax viloyati | 1 507,4 | 1 537,6 | 102,0 |
| <i>hududlar:</i> | | | |
| Jizzax sh. | 195,8 | 200,0 | 102,1 |
| Arnasoy | 48,7 | 49,5 | 101,6 |
| Baxmal | 170,6 | 174,2 | 102,1 |
| G'allaorol | 186,9 | 190,6 | 102,0 |
| SH.Rashidov | 243,1 | 248,8 | 102,3 |
| Do'stlik | 70,0 | 71,0 | 101,4 |
| Zomin | 179,5 | 183,9 | 102,5 |
| Zarbdor | 94,6 | 96,5 | 102,0 |
| Mirzacho'l | 55,4 | 56,3 | 101,6 |
| Zafarobod | 53,7 | 54,5 | 101,5 |
| Paxtakor | 80,9 | 82,4 | 101,9 |
| Forish | 98,4 | 99,7 | 101,3 |
| Yangiobod | 29,8 | 30,2 | 101,3 |

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 38,6 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 25,3 promilleni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,1 promillega kamaygan (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 27,4 promille bo‘lgan).

Qiz bola:
18,7 ming kishi

O‘g‘il bola:
19,9 ming kishi




Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-dekaab, kishi

Ma’lumot uchun!: tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.


Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-dekabr, kishi

| | 2023- yil | 2024- yil | O‘sish sur’ati, % da |
|------------------------|---------------|---------------|-------------------------|
| Jizzax viloyati | 40 875 | 38 561 | 94,3 |
| <i>hududlar:</i> | | | |
| Jizzax sh. | 4 962 | 4 408 | 88,8 |
| Arnasoy | 1 102 | 1 102 | 100,0 |
| Baxmal | 5 256 | 4 920 | 93,6 |
| G‘allaorol | 5 327 | 5 156 | 96,8 |
| SH.Rashidov | 7 275 | 6 982 | 96,0 |
| Do‘stlik | 1 689 | 1 523 | 90,2 |
| Zomin | 5 125 | 5 044 | 98,4 |
| Zarbdor | 2 595 | 2 481 | 95,6 |
| Mirzacho‘l | 1 102 | 1 060 | 96,2 |
| Zafarobod | 1 415 | 1 230 | 86,9 |
| Paxtakor | 2 125 | 1 972 | 92,8 |
| Forish | 2 255 | 2 081 | 92,3 |
| Yangiobod | 647 | 602 | 93,0 |



Tug‘ilishlar yillar kesimida



Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



2024- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,8%**
- 2 nafar – **2,2%**

VAFOT ETGANLAR


2024- yil yanvar-dekabr

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,2** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan ko‘rsatkich **0,5** ga o‘limlar soni kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- dekabr oylarida **4,6** promille bo‘lgan).

Hududlar kesimida o‘lganlar soni


2024- yil yanvar- dekabr, kishi

| | 2023- yil | 2024- yil | O‘sish sur’ati, % da |
|------------------------|--------------|--------------|-------------------------|
| Jizzax viloyati | 6 841 | 6 190 | 90,5 |
| <i>hududlar:</i> | | | |
| Jizzax sh. | 830 | 886 | 106,7 |
| Arnasoy | 232 | 163 | 70,3 |
| Baxmal | 832 | 742 | 89,2 |
| G‘allaorol | 889 | 888 | 99,9 |
| SH.Rashidov | 1 141 | 930 | 81,5 |
| Do‘stlik | 302 | 239 | 79,1 |
| Zomin | 777 | 704 | 90,6 |
| Zarbdor | 404 | 351 | 86,9 |
| Mirzacho‘l | 194 | 208 | 107,2 |
| Zafarobod | 292 | 197 | 67,5 |
| Paxtakor | 375 | 353 | 94,1 |
| Forish | 402 | 385 | 95,8 |
| Yangiobod | 171 | 144 | 84,2 |



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- dekabr, kishi



3276

Qon aylanish
tizimi kasalliklaridan



559

Nafas olish a‘zolari kasalliklaridan



558

O‘simalardan



526

Baxtsiz hodisa zaharlanish
va jarohatlanishlardan



294

Ovqat hazm qilish
a‘zolari kasalliklaridan




83

Yuqumli va
parazitar kasalliklardan




894

Boshqa kasalliklardan




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,9** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,0** % i – o‘sintalardan, **9,0** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **8,5** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,8** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,3** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **14,5** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **11,2** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan minus **0,7** promille kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- dekabr oylarida **8,0** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2024- yil yanvar-dekabr oylarida **1,7** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan o‘zgarish kuzatilmadi (2023- yil yanvar- dekabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr




2024- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **52,6 %** farzandsiz, **26,5 %** bitta farzand bilan va **20,9 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

AHOLI MIGRATSİYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)


2024- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **7 586** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **9 824** kishini, migratsiya saldosi minus **2 238** kishini tashkil etdi. 2023 yilning mos davrida minus **2 120** kishi bo‘lgan.

Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **7,6** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **5,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,8** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,2** promille bo‘lgan).

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr, (kishi)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,8** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **6,5** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,8** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar- dekabr oylarida **5,7** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaсидаги farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'limi

Tel: 72 221-51-19